



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI QARORI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2022 - yil 9 - avgust

119-5-74-Q/22

Nurota tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi “Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-331-sonli va Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 29-iyuldagi 154-5-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

Tumandagi mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni har tomonlama qo‘llab - quvvatlash, ularning faoliyat yuritish sharoitlarini yaxshilash, avvalambor ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalarda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishini jadallashtirish hamda ushbu asosda doimiy ish joylari tashkil etilishini ta‘minlash va aholi daromadlarini oshirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi “Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-331-sonli va Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 29-iyuldagi 154-5-0-Q/22-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining mahallalarda yuridik shaxs maqomiga ega sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlarini (keyingi o‘rinlarda-mikromarkazlar) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik yo‘nalishlarida tashkil etiladigan mikromarkazlarning manzilli ro‘yxati hamda Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik yo‘nalishlaridagi mikromarkazlarni istiqbolda tashkil etish reja-grafigi tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riyev), mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (H.Qarshiboyev), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (R.Safarov), Kadastrlar palatasi tuman filiali (E.Ro‘zimurodov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-331-sonli qarori 1-ilovasida ko‘rsatilgan mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik yo‘nalishlarida tashkil etiladigan mikromarkazlarning tasdiqlangan manzilli ro‘yxati 70-bandida asosida belgilangan tartibda, ko‘rsatilgan muddatda mikromarkazni tashkil etilishini ta‘minlasin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Bo‘riyev, Sh.Rustamov), mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (H.Qarshiboyev), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (R.Safarov), Kadastrlar palatasi tuman filiali (E.Ro‘zimurodov) tegishligi bo‘yicha:

bir oy muddatda va yer uchastkasida tashkil etiladigan mikromarkazning namunaviy shaklini tegishli viloyat tashkilotlari bilan kelishgan holda tasdiqlanishini ta‘minlasin;

manfaatdor davlat organlari va tashkilotlar bilan birgalikda bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining 1-ilovasida ko‘rsatilgan Nurota tumani Istiqbol mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi bo‘sh turgan yer uchastkasi belgilangan tartibda elektron onlayn-auksionga chiqarilishini ta‘minlasin;

manfaatdor davlat organlari va tashkilotlar bilan birgalikda doimiy ravishda mikromarkazlarni zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya va transport tarmoqlari bilan ta‘minlashga oid chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

2022-yil 1-dekabrga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining 2-ilovasiga asosan mikromarkazni istiqbol mahalla fuqarolar yig‘ini hududida tashkil etish uchun bo‘sh turgan yer uchastkasining manzilli ro‘yxatini tegishli viloyat tashkilotlari bilan kelishgan holda shakllantirsin.

5. Tuman mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (H.Qarshiboyev) mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimi yordamchilarini faol jalb qilgan holda:

doimiy ravishda mikromarkazlarni tashkil etish uchun bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari va yer uchastkalarini aniqlab borsin hamda ro‘yxatini shakllantirsin;

2023-yil 1-aprelga qadar kelgusi yillar uchun mikromarkazlarni tashkil etish reja-grafigini (manzilli ro‘yxatini) viloyat hokimligiga kiritilishini ta‘minlasin.

6. Tuman mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (H.Qarshiboyev), tuman hokimligi axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi L.Mansurovlar mazkur qarorning mazmun-mohiyati ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlariga yetkazilishini ta‘minlasin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Bo‘riyev, Sh.Rustamov, F.Yodgorov), mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (H.Qarshiboyev), kadastr agentligining tuman bo‘limi (R.Safarov), Kadastrlar palatasi tuman filiali (E.Ro‘zimurodov) tegishligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida belgilangan topshiriq va vazifalarning tumandagi ijrosini o‘z vaqtida sifatli tarzda amalga oshirilishini ta‘minlasin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo‘riyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Fayziyev